

TAFAKKUR ZIYOSI

Tafakkur ziyosi 2/2022
ilmiy uslubiy jurnal



“Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazdik. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviylik va davomiyligini ta‘minlash maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi”.

“Prezident sifatida men mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yo‘lida butun borlig‘imni bag‘ishlab, xalqimga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotimning ma‘no-mazmuni deb bilaman. Men uchun bundan boshqa oliy maqsad, baxt-saodat yo‘q. Siz, qadrlil vatandoshlarimning chin dildan qo‘llab-quvvatlashingiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimizning duolari, aziz yoshlarimizning ishonchi menga katta kuch-g‘ayrat beradi”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV

BOSH MUHARRIR

Shavkat Safarovich Sharipov –
pedagogika f. d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI

Usmonjon Qosimov – filologiya.
f. d., dotsent

G'ayrat O'roqboyevich Qodirov –
biologiya f. n., dotsent

MAS'UL KOTIB

Farrux Aqchayev – tarix
f. b. f. d. (PhD), dotsentr

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva - filologiya. f. b. f. d. (PhD)

Eldar Hasanov
(rus tili)

Kamoliddin Normurodov
(ingliz tili)

TEKNIK MUHARRIR:

Murodulla Jo'rayev – filologiya
f. b. f. d., (PhD)

NAVATCHI MUHARRIR:

Feruza Jumayeva – filologiya
f. b. f. d., (PhD), dotsent

SAHIFALOVCHILAR

Guljaxon Kadirova
Adolat Uskinboyeva

**Jurnal andozasi Raqamli ta'lim
texnologiyalari markazida
Rasuljon Meliquziyev**

Muassis - Jizzax davlat
pedagogika instituti

Jurnal yilda 4 marta
(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan ko'chirma
va ma'lumotlar aniqligi uchun
mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda,
manba qayd etilishi shart.

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev – tarix f. d., akademik

Komiljon Tojiboyev - biologiya f. d., akademik

Jak Miklovik – INSHEA universiteti professori (Fransiya)

Vasiliy Kochurko - Baranovich DU professori, texnika f. d.
(Belorussiya)

Gulsem Lekerova – psixologiya f. d., professor (Janub. Qozog'iston)

Furqat Jo'raqulov – siyosiy f. d., dotsent

Botir To'xtamishev – texnika f. n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov – sotsiologiya f. b. f. d. dotsent

Baxtiyor To'rayev – falsafa f. d., professor

Qozoqboy Yo'ldoshev – pedagogika f. d., professor

Xolbo'ta Turaqulov-texnika f. d., professor

Umrzoq Jumanazarov – filologiya f. d., professor

Abdug'afur Mamatov - filologiya f. d., professor

Rahmatulla Bekmirzayev – fizika-matematika f. d., professor

Oybek Axmedov – filologiya f. d., professor O'zDJTU

Faniya Axmedshina – tarix f. d., professor

Baxti Ochilova - falsafa f. d., professor

Hamid Meliyev – pedagogika f. n., professor

Xudoybergan Mavlonov – biologiya f. d., dotsent

Qo'chqor Hakimov – geografiya f. n., professor v. b.

Mo'min Hoshimxonov-falsafa, filologiya. f. d., doktori

Furqat Axmedov - pedagogika f. n., professor

Akbar Saitqosimov – falsafa f. d., professor

Zuhra Yaxshiyeva - kimyo f. d., professor

Abdunazar Nurmonov-pedagogika f. d., professor

Rustam Abdurasulov – psixologiya f. d., dotsent

Marat Sultonov - kimyo f. d., professor

Ilyos Islamov - tarix f. d., dotsent

Omon Isarov – filologiya f. d., dotsent

Muxtorqul Paradaev - tarix f. n., dotsent

Rabbim Yusupov – texnika f. n., dotsent

Oleg Kim – filologiya f. n., dotsent

Abduvali Shamshiyev – iqtisod f. n., dotsent

Sunnatullo Soipov – filologiya f. n., dotsent

Yulduz Karimova – filologiya f. n., dotsent

Kamoliddin Zoyirov - pedagogika f. n., dotsent

Sherali Abduraimov – pedagogika f. b. f. d., dotsent

To'ychi Axmedov – tarix f. b. f. d., dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MATBAA BO'LIMI

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy
2022-yil 25- iyun kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____
Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI:

Sh.S.Sharipov, A.J.Usmonov Oliy ta'lim muassasalari investitsion salohiyatini oshirishning iqtisodiy funksiyalari.....	3
--	---

TAQVIM:

U. Qosimov, T. Zokirova Ijodkor shaxs va poetik mahorat (Halima Xudoyberdiyeva tavalludining 75 yilligiga).....	7
---	---

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

B.Mirkomilov Talabalariga yapon xalqi badiiy qadriyatlarini o'rgatish.....	11
T.A.Shaymanov, M.A.Nurqo'ziyeva Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatda kasbiy barqaror bo'lishiga erishish omillari.....	16
F.S.To'rabekov Texnologiya o'qituvchisining axborot ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi xususida.....	21
G.I.Sayfullayeva Ta'lim tizimida stem dasturidan foydalanishning ahamiyati va afzalliklari.....	26
R.Sh.Toshkuvatova Oilada ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda ota-onaning o'рни.....	30
A.E.Begbo'tayev, S.X.Asadov Maktab ta'limi samaradorligini oshirishda mobil o'qitishning roli.....	33
Z.K.Kurbanizayeva Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda obyektga doir pedagogik vaziyatlarning ahamiyati.....	38
M.A.Umaraliyeva, D.B.Gulmonova Oila institutining rivojlanishida qadriyatlarining o'рни: milliy va xorijiy tajriba.....	42
Sh.Buranova Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishiga oila va mahallaning ta'siri.....	45
G.S.Raxmonova Kreativ va nonstandart tafakkur muammosining pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi.....	48

AMALIY FANLAR

K.A.Zoyirov Bo'lajak me'morlarning kompyuter grafikasi tayyorlagiligi muammolari.....	52
U.L.Kuchkarov Jismoniy tarbiya va uning prinsiplari.....	54
M.B.Yuldashева, A.H.Kolkanatov Многовариантный спектр системообразующих социокультурных качеств в современном художественном образовании.....	58
P.O'.Xudoyberdiyev Ko'z tasvirini ishlashning o'ziga xos tomonlari.....	62
S.R.Xalikov Yaponiyaning yetakchi zamonaviy me'morlaridan biri tadao ando ijodi.....	64
T.Oltmishiev Rangtasvir ishlashda grizaylning o'рни va ahamiyati.....	69
M.Sh.Yaxshiyeva, H.X.Fetxulova Изучение мотивации студентов к занятиям физической культурой на основе использования мобильных приложений.....	72
J.O.Soliyev Bosh kiyimni odam portretini ishlash texnologiyasi.....	75
S.Ro'ziboyev Elektromobil ekspluatatsiyasida ikkilamchi shamol energiyasidan foydalanish qurilmasi.....	78
K.A.Mamajonova Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish uslubi.....	81

IJTIMOY FANLAR

R.R.Komilov "Avestoda" nikoh munosabatlari.....	85
X.A.Djurakulov Zamonaviy ekoturizm rivojida shaxs ekologik huquqiy ongini yuksaltirishdagi o'ziga xos yondashuvlar.....	88
A.E.Shaymanova Fuqarolik jamiyati qurilishi va mulkdorlar qatlami: tushuncha va mohiyat.....	91
T.M.Burxonov Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalasining pedagogik tahlili.....	94
B.Botirov, A.J.Qo'shmurodov O'zbekistonda yangi ishchi o'rinlari yaratish kambag'allikni qisqartirish omili.....	97
G.G'.G'afarova Multidistsiplinar, interdistsiplinar va polidistsiplinar tizimli yondashuvlar: falsafiy tahlil.....	100
X.K.Xudoyberdiyeva Shaxsni estetik tarbiyalashda fan, ta'lim va qadriyatlarining o'zaro bog'liqligi.....	104
U.To'pchiyev Turkiston o'lkasidagi uzumchilik, vinochilik taraqqiyotini o'rganishda arxeologik materiallarning o'рни.....	107
R.N.Nazarov Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri.....	110
J.B.Saitmurodov Gegel falsafasida ruh va uning taraqqiyoti haqidagi qarashlar.....	113

FILOLOGIYA FANLARI

N.E.Sabirova Xorazm baxshichilik analari: repertuar va ijro mahorati.....	116
D.M.Iсроилова Формирование межкультурной компетенции в технических вузах и анализ программ и учебников в аспекте исследуемой проблемы.....	120
X.Sh.Hamdamova "Rustamxon" dostonining lug'at boyligida ko'pma'holilik.....	125
D.Y.Shigabutdinova Ingliz tilini o'rganishda madaniyat, ana va qadriyatlarining ahamiyati.....	127
M.Sh.Qudratova Sirojiddin Sayyid g'azallarining mavzular olami.....	130
N.Imomiddinova Xitoycha harbiy terminlar tizimida qurol-yarog' nomlari.....	134
S.T.Mustafayeva Xitoy ming davri romanlarida ayrim fe'llarning leksik-struktur va grammatik-funksional xususiyatlari.....	137
N.J.Yarashova Bolalar adabiyoti tilidagi paralingvistiklarning interpretatsiyasi.....	142
Sh.B.Rahimova Nofilogik ta'lim yo'nalishlarida chet tillarini o'qitish metodlarini tanlash mezonlari.....	145
S.U.Azizov Oliy ta'limning chet tillarini o'rgatish tizimida blended til ta'limi muhitini tatbiq etish taraqqiyoti.....	149

TABIIY VA ANIQ FANLAR

R.N.Bekmirzayev, F.Q.Tugalov Tabiiy fanlarni o'qitishda transdistsiplinarlikning o'рни.....	153
A.Alishiev, U.K.Sarimova, J.I.Murtozayev Harakteristik tenglamaning ildizlari karrali bo'lganda differensial tenglamalar sistemasining yechimlarini asimptotik ko'rinishda ifodalash.....	156
U.A.Soatov, V.U.Abdug'odirov Parametrlil masalalar va ularni nonstandart usullar yordamida yechish.....	159
G'.M.Sher taylaqov, D.T.Bobonov Fizikadan nonstandart laboratoriya ishlarini bajarishda o'quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirish tamoyili.....	164
Sh.B.Bekchonova Internet va web-ga asoslangan ta'lim asosida maxsus elektron ta'limni amalga oshirish.....	168
M.S.Inatova, B.N.Jo'rayeva, M.A. Murakkab eifrlar mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish va hayotga tatbiq etish.....	173
B.B.Abdug'aniyev O'quv robototexnikasi maktabda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish vositasi sifatida.....	176
Q.X.Aiqorov Fizika fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish usullari.....	180
G.A.Kurbanova, N.Y.Normatova, K.H.Umarova, K.X.Rashidova Metallar korroziyasi mavzusini interfaol usullarda o'qitish metodikasi.....	182
F.B.Irisboev, S.R.Omonov Bipolyar tranzistorlarning konstruksiyasi.....	186

YOSH TADQIQOTCHILAR

A.P.To'rayeva O'zbekistondagi islohotlarning oila barqarorligidagi o'рни.....	189
Y.Y.Isomiddinov O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash dolzarb vazifa.....	192
I.E.Qarshiyev Inson dunyo qarashida ong va ongsizlik: karl gustav yun talqinida ekstravert va introvert tiplar.....	196
Sh.A.Botirov Fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish masalalari.....	199
R.B.Boymatov Shaxs siyosiy faoliyatida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati.....	202
B.Narzulayeva Mahallalararo dostlik aloqalarini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	205
M.A.Sherboboyev Karl Poppning siyosiy qarashlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	208
A.A.Abdurahmonov Sovet hokimiyati yillarida samarqandda bosma ommaviy axborot vositalari faoliyati.....	213
T.B.Nazarov Tanqidiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	217
D.Xolmurodov Mustaqillik yillarida o'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida tibbiyot sohasidagi o'zaro hamkorlikning rivojlanishi.....	221
R.R.Urinboev Multimediial elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi.....	227
U.A.Eshonqulov Yuz urug'ining o'zbek etnik guruhlari orasida tutgan o'рни.....	231
M.Tilovboev O'lkamizdagi qoyatosh suratlari - "zangori osmon ostidagi ochiq muzey" sifatida.....	234
X.O.Pardayeva Kredit-modul ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitish masalalari.....	238
H.T.To'rayeva, A.K.Abdushukurov Oliy o'quv yurtlarida kredit modul tizimining klaster usulidan foydalanish.....	241
X.M.Xoshimxonov XXI asrda Axmad Yassaviyni o'rganish zarurati.....	244
Z. K. Salimova Intensiv pedagogik texnologiyalarini ingliz tilini o'rganishda tatbiq etish.....	247
O. Abduvaliyev Jamiyatda yoshlar innovatsion faolligini oshirishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari.....	251

// Har yerda dushmanning qo'li boylansin, (389);

12) "Qayerda bo'lsa ham": Erisin tog'larning qori, erisin, // Yer ostida zolim tani chirisin: (391).

Yuqorida ta'kidlangan leksik-semantik xususiyatlardan ma'lum bo'ladiki, "Rustamxon" dostonida yer leksemasi o'n ikkita ma'noda qo'llanilgan. Bulardan tashqari, mazkur leksemaning doston matnida jo'nalish, o'rin-payt, chiqish, qaratqich kelishigi shaklida ko'makchi vazifasini bajarganda payt, o'rin, sabab kabi munosabatlarni bildirib kelganligi ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Xulosa qilib aytganda, «Rustamxon» dostonining so'z boyligini hamda ma'no jilodorligini oshirishda ko'pma'nolilik hodisasining o'rne katta. Bu hodisalardan o'z o'rnida, ijodkorona foydalanish esa baxshi-shoirlarning mahoratiga bog'liq. Chunki xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida ularning ishtirokida jarang sochib, millatga tarqaladi, avlodlarga meros qoldiriladi. Tilshunoslarning bu boradagi ilmiy izlanishlari esa, ularning hayotiyiligini va jamiyatda barqaror qolishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA MADANIYAT, AN'ANA VA QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Dina Yasaviyevna Shigabudinova - o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini o'rganishda madaniyat, an'ana va qadriyatlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, har bir mahalliy madaniyat o'ziga xos tarixiy va tabiiy sharoitda shakllanishi tahlil etiladi.

Аннотация: В статье подчеркивается важность культуры, традиций и ценностей в изучении английского языка. Также анализируется взаимозависимость языка и культуры, формирование каждой локальной культуры в ее собственных исторических и природных условиях.

Abstract: The article highlights the importance of culture, tradition and values in learning English. It also analyzes the interdependence of language and culture, the formation of each local culture in its own historical and natural conditions.

Kalit so'zlar: madaniyat, til, an'ana, qadriyat, inson, shaxs, gipoteza, muloqot, mobillik, globallashuv, kompetentsiya.

Ключевые слова: культура, язык, традиция, ценность, человек, личность, гипотеза, коммуникация, мобильность, глобализация, компетентность.

Keywords: culture, language, tradition, value, person, individual, hypothesis, communication, mobility, globalization, competence.

Globalashuv, xalqaro akademik mobillik, talabalar o'rtasida kasbiy o'zaro aloqaning kengayishi davrida xorijiy tillarni o'rganish roli ortib boradi. Mamlakatlararo o'zaro faol munosabatlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va madaniy muloqotning kengayishi sotsiomadaniy hamda kasbiy muloqot chegaralarini yanada kengaytiradi. Axborot manbalaridan foydalanishning osonligi turli tillardagi ma'lumotlarni olish va tahlil etish imkoniyatlarini beradi. Bunda odamlar dunyo tajribalarini umumlashirib, boshqa davlatlar madaniyati bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

Hozirda dunyoda eng keng tarqalgan til ingliz tili hisoblanadi. Global Internet tarmog'i bugungi kunda turli axborot olishning asosiy manbai sifatida qo'llanmoqda. Ingliz tili britan

va amerikacha turlarga ajratiladi. Bu variantlar talaffuzi va leksik, grammatik xususiyatlari bilan farqlanib, muloqot jarayonida suhbatdoshlar bir-birini tushunmasligiga olib kelishi mumkin. Bernard Shouning AQSh va Buyuk Britaniya umumiy til bilan ajratilgan ikki mamlakat, degan iborasi mavjud. Britaniya varianti Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika va Buyuk Britaniya davlatlarida qo'llaniladi hamda "Britaniya Millatlar Hamjamiyatining ingliz tili" deb ataladi. Hamjamiyat mamlakatlari o'rtasidagi farqlarga qaramay, bu til varianti amerika shevasidan sezilarli darajada farq qiladi va Yevropa Ittifoqining rasmiy tili sifatida ishlatiladi. Muloqot jarayonida o'zaro tushunish talabalarda lingvistik kompetentsiya (til va nutq)ni shakllantirishdan tashqari madaniy va kasbiy kompetensiyani ham darajasini

oshiradi.

Madaniyatlararo kompetentsiya deganda muloqotni chet tilida amalga oshirish tushuniladi. Bunda suhbatdoshning madaniy va u bilan bog'liq stereotiplaridagi farqlar inobatga olinadi. Tilni o'rganish jarayonida mamlakat, uning madaniyati, tarixi va dini to'g'risida axborot olishga e'tiborni qaratish zarur. Mazkur kompetensiyani shakllantirishda an'analar haqida ma'lumotga ega bo'lish muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'zaro tushunmaslik to'siqlarini oshib o'tishga yordam beradi¹. An'analar bilim kategoriyalari kabi umumiyliigi va universalligi bilan ajralib turadi, chunki ular barcha sohalarda mavjud: moddiy, siyosiy, badiiy, axloqiy, ro'zg'or va hatto jismoniy madaniyatda bor.

Yuqorida zikr etilganlardan kelib chiqib, chet tillarini o'rganish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) O'rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishish;
- 2) Chet tili tashuvchilari xulq modelini o'zlashtirish;
- 3) Kommunikantlar o'rtasida kross-madaniy muloqot va o'zlashtirish natijasida chet tili va ona tilini boyitishning ta'sirini ko'rib chiqish;
- 4) Xorijiy madaniyat xususiyatlarini inobatga olgan holda xulqning milliy modelini amalga oshirish;
- 5) Ikki madaniyat ta'siri ostida shaxsning rivojlanishi.

Madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirish tildagi voqe'liklarni solishtirish va tahlil etishga imkon beradi. Chet tillarini o'rganish payti o'z tili borasidagi bilimlariga murojlat qilinadi, ularni qo'llashdagi o'xshash va farqli jihatlari ajratiladi. Xorijiy madaniyatni o'rganish turli mamlakatlar va o'z mamlakati tarixi, madaniy-tarixiy faktlarga murojaat etishning zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga xorijiy tilni o'rganish insonni o'z madaniyati va tilini chuqurroq o'rganishiga imkon beradi. Insonning etnik mansubligi shaxs olamiga munosabatni aks ettiradi. Tilni o'zlashtirish asnosida tushunchalar, qarashlar, badiiy obrazlar, mantiq va falsafa, tabiat, insonlar xarakteri va dinlar o'rganiladi. Ya'ni til vositasida madaniyat o'zlashtiriladi va shakllanadi. Madaniyatlararo kompetentsiya shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- til muhiti an'analari va madaniyati farqli hamda o'xshash jihatlarni topish;
- baholashni o'zgartirish va stereotiplardan

qutulish.

Talabalar chet tillari vositasida sotsiomadaniy va kasbiy kompetentsiyalarini audiozapis va videofilmlardan mashg'ulotlar payti foydalanishi orqali rivojlantirishlari mumkin. Milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon etish uchun asl badiiy adabiyot namunalariidan foydalanish mumkin. Bunda ba'zi bir mamlakatlarda bo'lganidek ingliz adabiy tili standartlari mavjud emas. Til standarti bo'lib (Received Pronunciation)², ya'ni ma'lum bir hududga xos bo'lmagan talaffuz sanaladi va saviyali kishilar uchun xos hisoblanadi.

Boshqa an'analar qatorida tilni o'zlashtirishdagi jihatlardan biri etiketni o'rganishni ajratib ko'rsatadilar. Unga millat va xalqning odatlari, milliy va mental xususiyatlari, shuningdek ijtimoiy-madaniy normalariga amal qilish hisoblanadi. Aytish joizki, tilni o'rganishda tili tashuvchisi istiqomat qiladigan mamlakatning tarixi, har kunlik turmush va ro'zg'or an'analari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish zarur.

Har bir mahalliy madaniyat o'ziga xos tarixiy va tabiiy sharoitda shakllanadi hamda o'z olami manzarasini, inson obrazini va muloqot tilini yaratadi. Har bir madaniyat o'z til tizimiga ega bo'lib, uning yordamida insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar. Biroq tilning madaniyatdagi roli va ahamiyati faqatgina shunga borib taqalmaydi. Tildan tashqari madaniyat bo'lishi mumkin emas, chunki til uning asosini va ichki bazisini tashkil etadi. Til vositasida odamlar ramzlar, me'yor, urf-odat, axborot, bilim va xulq-atvorni, din, g'oya, hissiyot, qadriyatlarini uzatadilar. Shu tartibda ijtimoiylashuv amalga oshadi va u madaniy norma hamda ijtimoiy rollarni o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Bularsiz esa inson jamiyatda yashay olmaydi. Til tufayli jamiyatda kelishuv, uyg'unlik amalga oshadi va barqarorlik hukm suradi.

Insoniy muloqot jarayonida tilning roli hozirgi kunda ilmiy tadqiqot va tahlilning mavzusiga aylandi. Buni olimlardan D.Viko, I.Gerder, V.Gumboldt va boshqalar o'rganganlar va lingvistikaga asos solganlar. Bugungi kunda til shuningdek psixolingvistika va sotsiolingvistika tomonidan ham o'rganilmoqda. Til va nutq muloqotini o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga XX asrda erishildi. Chunki olimlar til va madaniyatni o'zaro bog'ladilar.

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini

¹ Богатырева М.А. Социокультурный компонент содержания профессионально-ориентированного учебника. Москва, 1998 – С. 34

² Жукова И.В. Работа с текстами на уроке английского языка. ИЯШ, 1998 – С. 105

birinchilardan tadqiq etgan olimlar amerikalik madaniy antropolog F.Boas va britaniyalik ijtimoiy antropolog B. Malinovskiy hisoblanadi. Boas hali 1911-yildayoq ushbu bog'liqlikni ko'rsatib beradi va ikki madaniyatni lug'at tarkibi bilan solishtiradi. Ko'pchilik shimoliy amerikaliklar uchun qor oddiy ob-havo hodisasi bo'lib, ularning leksikonida ikki so'z ishlatiladi: «snow» (qor) i «slush» (erigan qor)³bo'lsa, eskimoslar tilida esa qorning turli holatlarini ifodalaydigan 20 dan ortiq so'z mavjud ekan. Bundan ko'rinib turibdiki, bu madaniyatlar o'rtasidagi farq ulardagi muhim narsa nima ekanligidan yaqqol ma'lum.

Til va madaniyat aloqasini tushunishda Sepir-Uorfning mashhur lingvistik gipotezasi ham o'z hissasini qo'shgan. Unga ko'ra til bu fikrni ovoz bilan ifodalash vositasi emas, uning o'zi fikrni shakllantiradi va bundan tashqari biz dunyoni qanday gapirsak, shunday ko'ramiz. Bunday g'oyaga kelish uchun olimlar turli tillarning tarkibini emas, balki ularning tuzilmasini tahlil qilib chiqdilar. Ya'ni Yevropa tillari bilan xopi tili taqqoslandi. Masalan, aniqlanishicha, xopi tilida o'tgan, hozirgi va kelgusi zamonga bo'linish yo'q; ingliz tilidagi "U o'n kunga qoldi" degan iboraga xopi tilidagi "U o'n birinchi kungacha qoldi" degan gap muvofiq keladi. Shunday misollar turida Uorf madaniyat va tilning bog'liqligini tushuntiradi.

Sepir-Uorf gipotezasi ahamiyatini judayam oshirmaslik lozim, bo'lmasa inson tafakkuri mazmuni va uning taassuroti uning predmeti bilan belgilanadi. Inson haqiqiy olamda yashay oladi, chunki hayotiy tajriba uni idrok va tafakkur ziddiyatga kirishganda paydo bo'ladigan xatolarini tuzatishga majbur qiladi. Shuning uchun madaniyat til qobig'ida yashab, rivojlanadi. Aksincha qobiq madaniyat mazmuniga buyruq bermaydi. Biroq til, tafakkur va madaniyatning bog'liqligi rolini ham kamaytirib bo'lmaydi. Aynan til olam manzarasining asosi sifatida xizmat qiladi. U har bir insonda vujudga kelib, kuzatiladigan atrof olamdagi hodisa va predmetlarning ko'pligini tartibga soladi.

Har qanday predmet yoki hodisa nomi bo'lgan taqdirdagina insonga yetib boradi. Aks holda ular biz uchun mavjud emas. Ularga nom bergach, inson yangi tushunchani ongida mavjud bo'lgan tushunchalar to'riga jo etadi. Ya'ni yangi elementni mavjud olam

manzarasiga kiritadi. Aytish mumkinki, til nafaqat kommunikatsiya yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi vositadir. Har bir til dunyoni aks ettiribgina qolmay, inson ongida ideal bir olamni quradi va voqelikni loyihalashtiradi. Shuning uchun til va dunyoqarash ajralmas bir-biriga bog'liqdir.

Kulturologik adabiyotlarda tilning ahamiyati ko'pincha quyidagicha baholanadi:

- Madaniyat oynasi, unda nafaqat insonni o'rab turgan olam, balki xalqning mentaliteti, uning milliy xarakteri, an'analari, urf-odati, ma'naviyati, axloq va qadriyatlarini, dunyoqarashi aks etadi;

- Madaniyat xazinasini, chunki xalq tomonidan to'plangan barcha bilim, malaka, moddiy va ma'naviy boyliklar, qadriyatlar uning til tizimida, ya'ni folklori, kitoblari, yozma va og'zaki nutqida saqlanadi;

- madaniyat tashuvchisi, chunki til yordamida u avloddan avlodga o'tadi. Bolalar madaniyat jarayonida tilni o'rganib, shu bilan birga oldingi avlodning tajribasini o'zlashtiradi;

- Inson shaxsini shakllantiradigan madaniyat vositasi, chunki aynan til orqali mentalitet, an'analar va xalqning odatlari qabul etiladi, shuningdek dunyoning o'ziga xos madaniy obrazi singdiriladi.

Bundan tashqari til: insonning atrof muhitga moslashishini yengillashtiradi; ob'ekt, hodisa va ularning muvozanatini to'g'ri baholashga ko'maklashadi; atrof olam to'g'risidagi ma'lumotlarni tasniflash va tartibga solishga yordam beradi; inson faoliyatini tashkil etish va boshqarishda yordamlashadi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy farqlarga nisbatan bag'rikenglik asosida turli mamlakatlarning urf-odat va an'alariga hurmat yotadi. Shu bilan birga madaniyatlararo muloqotyoshlardamilliyg'ururvavatanparvarlik kabi hissiyotlarni shakllantiradi. Til o'rganish orqali nafaqat tilning lingvistik qoidalari, balki tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoiy-madaniy va tarixiy xususiyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga madaniyat til yordamida beriladi va bu qobiliyat insonni boshqa mavjudotlardan farqlaydi. Til tufayli madaniyat bilimlarni to'plash va o'tmishdan kelajakka yetkazish imkonini yaratadi.

3 Рум А.Р. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. М., Рус.яз. 2000. – С. 560

SIROJIDDIN SAYYID G'AZALLARINING MAVZULAR OLAMI

Muborak Shuhratovna Qudratova – o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aruzning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi nafosati, o'ziga xos badiiy-estetik ahamiyatini namoyish qilishda Sirojiddin Sayyid ijodining o'rnini, uning g'azallaridagi mavzular olami xususida so'z boradi. G'azallarining mavzu yo'nalishi va tuzilishiga ko'ra turlari, keyingi davrlarda g'azalning mavzu yo'nalishi kengayib borgani va shu tariqa, g'azal mavzusi insonning keng, intim tuyg'ulari bilan birga ijtimoiy-hayot muammolarini ham qamrab olganligi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье речь идет о тонкости сна в современной узбекской литературе, о роли творчества Сирожиддина Сайида в демонстрации его уникального художественно-эстетического значения, о мире тем в его газелях. Проанализированы газелей по направленности и структуре, тематическая направленность газелей в последнее время расширилась, и таким образом тематика газелей охватывает широкий спектр интимных чувств, а также в социальных проблемах.

Abstract: This article deals with the subtlety of the dream in modern Uzbek literature, the role of Sirojiddin Sayyid's work in demonstrating its unique artistic and aesthetic significance, the world of themes in his ghazals. Analysis of the types of ghazals according to the direction and structure, the thematic direction of the ghazal has expanded in recent times, and thus the subject of the ghazal covers a wide range of intimate feelings, as well as social problems is done.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, g'azal, aruz, ritm, qofiya, tashbeh, ilmi qofiya, ilmi bade, ishq, ijtimoiy hayot, umr, ayol, Navoiy, janr, vazn, vatan,

Ключевые слова: классическая литература, газель, аруз, ритм, рифма, метафора, рифмовка, наука бадэ, любовь, общественная жизнь, жизнь, женщина, Навои, жанр, вес, родина.

Keywords: classical literature, ghazal, aruz, rhythm, rhyme, metaphor, rhyme, science bade, love, social life, life, woman, Navoi, genre, weight, homeland.

O'zbek mumtoz adabiyotida g'azal janrida ijod qilmagan shoir deyarli topilmaydi, Jumladan, Sayfi Saroyi, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlaro'zbek adabiyotida g'azal janri taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar.

Sobiq ittifoq davrida Aruz vazniga nisbatan eskicha qarash shakllangan bo'lib, bu vazn insonning ijtimoy-ruhiy holatini yoritib berish talablariga javob bera olmaydi degan fikrlar mavjud edi. Bundan tashqari "vulgar sotsiologizm" deb atalgan qarash oqibatida sevgi, shaxsiy kechinmalar badnom etilgan, she'riyatdan quvg'in qilingan edi. 50-yillarga kelib vaziyato'zgara boshladi, inson shaxsiga hurmat, qalbiga e'tibor oshdi, kishining xilma-xil kechinmalari, jumladan, an'anaviy sevgi taronalarini kuylash uchun yo'l ochildi. Bu hol an'anaviy she'riy shakl, ayniqsa g'azalning jonlanishiga olib keldi. Yangi davr she'riyatida g'azalchilik an'analari Habibiy, Charxiy, Chustiy, E.Vohidov, J.Kamol, A.Oripov va Sirojiddin Sayyid kabi o'nlab shoirlarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi. S.Abdulla, Habibiy, Charxiy, Chustiy, Vosit Sa'dulla kabi shoirlarimiz g'azal, muxammas, ruboiy, tuyuq

kabi mumtoz janrlarda ijod qilib, mumtoz va zamonaviy she'riyatimizni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini o'tashgan bo'lsa, E.Vohidov, J.Kamol, S.Zunnunova, A.Oripov va S.Sayyid kabi shoirlaro'z davri muammolarini targ'ib qilishga undab, ya'ni shoirbozlik qobig'ini yorib chiqib, g'azal nafislik rivojiga sezilarni hissa qo'shishdi.

Sirojiddin Sayyid shoir va tarjimon sifatida adabiyotimizda o'z o'rniga va obraziga ega ijodkor. Shoir barmoq vaznida qilgan barakali ijodi davomida aruzda ham o'zini sinab, ilk g'azallarini "G'azal mashqi" rukni ostida birlashtiradi. Aruzda yozish uchun nafaqat so'zni nozik his qilish, balki uni mahorat bilan tanlay olish va muayyan mezonga sola bilish zarur. Bundan tashqari mumtoz adabiyot namoyondalarining ijodidan xabardor bo'lish, aruz va qofiya ilmini chuqur bilish talab etiladi. Sirojiddin Sayyid ushbu fazilatlarga ega ekanligini, salohiyat darajasini o'z ijodi davomida ko'rsatib beradi. Uning ulug' salaf'larga bo'lgan ehtiromi ham nihaytada cheksiz, Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag'ishlangan she'rlari va g'azallariga bog'lagan muxammaslari buning yorqin dalilidir. Hatto "G'azal mashqi"dagi ilk